



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG‘I

20 24 yil “ 10 ” sentabr

№ 292

Toshkent sh.

Gripp va o‘tkir hamda og‘ir o‘tkir respirator infeksiyalar mavsumida aholi o‘rtasida epidemik barqarorlikni ta‘minlash borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida gripp va boshqa o‘tkir respirator infeksiyalarning tarqalishiga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 18-maydagi PQ-3729-son qarori ijrosini hamda gripp va o‘tkir, og‘ir o‘tkir respirator infeksiyalarning mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va aholi o‘rtasida epidemiologik barqarorlikni ta‘minlash maqsadida, **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

0-14 yoshgacha bo‘lgan bolalar, kattalar, o‘quvchilar, tarbiyalanuvchilarda, homiladorlar orasida o‘tkir respirator infeksiyalar, o‘tkir zotiljam, grippga o‘xshash kasalliklar, og‘ir o‘tkir respirator infeksiyalar to‘g‘risida **ma‘lumotlar** 1-ilovaga;

Grippga o‘xshash kasalliklari, o‘tkir respirator infeksiyalar, o‘tkir zotiljam bo‘yicha haftalik **tezkor ma‘lumotlar** 2-ilovaga;

Epidemiyaga qarshi tadbirlar bo‘yicha tezkor ma‘lumotlar 3-ilovaga;

Klinik shifoxonalar bo‘yicha **haftalik ma‘lumotlar** 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri va viloyatlar, Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning hududiy filiallari va ilmiy-tadqiqot institutlari, Respublika tez tibbiy yordam markazi va uning hududiy filiallari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari boshliqlari va vazirlik tizimidagi barcha davolash-profilaktika muassasalari hamda tashkilotlari rahbarlari:

har yili 1-oktabrga qadar davolash-profilaktika muassasalari shifokorlari, o'rta tibbiyot xodimlari uchun gripp va o'tkir hamda og'ir o'tkir respirator infeksiyalar profilaktikasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash, epidemiyaga qarshi chora-tadbirlari mavzularida seminarlar o'tkazishni;

barcha yuqumli kasalliklar shifoxonalari, perinatal markazlarining intensiv terapiya va reanimatsiya bo'limlarida og'ir o'tkir respirator infeksiyalar, bemorlarda o'tkir intoksikatsiya, nafas va yurak qon-tomir yetishmovchiligi, DVS-sindromi rivojlanishi xavfi kabi kasallik asoratlari kuzatilishi mumkinligini inobatga olgan holda bemorlar uchun qo'shimcha o'rinlar zaxirasini tashkil etib, epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tegishli sharoitlar yaratishni;

Respublika tez tibbiy yordami markazi va uning hududiy filialini, tez tibbiy yordam stansiyalarida DVS-sindromi va o'tkir nafas yetishmovchiligi mavjud bo'lgan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun maxsus brigadalarni tayyorlashni;

har yili 20-sentabrga qadar grippga qarshi emlash ishlarini amalga oshirish maqsadida davolash-profilaktika muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar, idoralar va muassasalardagi mavjud yoki vaqtincha tashkil etiladigan emlash punktlarida xavfsiz emlashni ta'minlash maqsadida yetarli sharoitlarni yaratishni;

har yili 1-noyabrga qadar gripp kasalligini yuqtirish va uning og'ir asoratlarini boshidan o'tkazish xavfi yuqori bo'lgan guruhlarini, jumladan "Bolalar uylari", "Mehribonlik uylari", "Bolalar shaharchalari" tarbiyalanuvchilari hamda "Sahovat" va "Muruvvat" internat uylarida yashovchilari uchun o'rnatilgan tartibda emlashni tashkil etishni;

birlamchi tibbiyot muassasalari, ya'ni ko'p tarmoqli markaziy poliklinika (KTMP), oilaviy poliklinika (OP) va oilaviy shifokorlik punkti (OShP) xodimlari tomonidan xonadonma-xonadon yurish (patronaj) xizmati vaqtida, surunkali kasalliklari mavjud, o'zgarlar ko'magiga muhtoj bemorlarni aniqlash, ularni grippga qarshi emlash bo'yicha oila a'zolariga tushuntirish ishlarini olib borishni;

hududiy korxona, idoralar va boshqa tashkilotlar hamda hamkor tashkilotlarga aholi bilan doimiy muloqotda bo'ladigan tibbiyot xodimlari, o'qituvchilar hamda ularning oila a'zolarini epidemik mavsumdan oldin grippga qarshi emlashning tibbiy va iqtisodiy tomondan maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risida keng ko'lamda tushuntirish ishlarini o'tkazishni;

barcha darajadagi yuqumli kasalliklar shifoxonalari va tug'ruq komplekslarida, perinatal markazlarda gripp va o'tkir respirator infeksiyalar bilan og'irgan bemorlar uchun shifo o'rinlari zaxirasini tashkil etish, COVID-19 kasalligi bo'yicha antigen ekspress testlar va virusga qarshi dori-darmonlar, shaxsiy himoya va dezinfektsiya vositalari bilan yetarli darajada qamrab olishni;

o'tkir respirator infeksiyali bemorlarda kasallikning og'ir kechishi alomatlari kuzatilganda zudlik bilan Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda shahar, tuman bo'limlariga yotqizishni;

davolash-profilaktika muassasalarini kuz-qish mavsumiga talab darajasida tayyorlash, gripp va o'tkir respirator infeksiyalarni tarqalish mavsumida virusga qarshi dori-darmonlar, shaxsiy himoya va dezinfeksiya vositalari zaxirasini yaratishni;

diagnostik va virusga qarshi dori vositalarining oqilona va maqsadli sarflanishi ustidan alohida nazoratni yo'lga qo'yishni ta'minlasin.

3. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi (B. Yusupaliyev):

har yili 1-oktabrdan Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – Qo'mita) va uning hududiy boshqarmalari qoshida grippga o'xshash kasalliklar, o'tkir respirator hamda og'ir o'tkir respirator va o'tkir pnevmoniya kasalliklari bo'yicha amalga oshiriladigan epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish shtablarini tashkil etishni;

barcha davolash-profilaktika muassasalarida va epidemik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa obyektlarda profilaktik, cheklov va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirilishi bo'yicha o'rnatilgan tartibda nazorat olib borishni va Qo'mitaning hududiy boshqarmalari virusologiya laboratoriyalarida gripp, o'tkir respirator virusli infeksiyalarni polimeraza zanjirli reaksiyasi usulida laboratoriya tahlillarini yo'lga qo'yish, ushbu laboratoriyalarda polimeraza zanjirli reaksiyasi usulida tekshiruvlarni olib borish uchun yetarli miqdorda diagnostik jamlamalar va boshqa laboratoriya vositalari bilan o'z vaqtida talab darajasida yetkazib berilishini;

Qo'mitaning hududiy boshqarmalari tomonidan grippga o'xshash kasalliklar (GO'K), o'tkir respirator infeksiyalarning (O'RI) haftalik epidemik bo'sag'asi hisoblab chiqilishini;

epidemik vaziyatni bo'sag'a darajasidan kelib chiqqan holda tahlil qilib baholash, aholi o'rtasida epidemik vaziyat barqarorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni kechiktirmasdan amalga oshirish uchun gripp va o'tkir respirator infeksiyalar tarqalishini o'z vaqtida aniqlanishini;

haftaning har dushanba kuni soat 11:00 gacha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi barcha davolash-profilaktika muassasalarida kuzatilgan grippga o'xshash kasalliklar (GO'K), o'tkir respirator infeksiyalar (O'RI), o'tkir zotiljam (O'Z), og'ir o'tkir respirator infeksiyalar (OO'RI), o'tkir respirator infeksiyalaridan kuzatilgan o'lim holatlari bo'yicha Qo'mitaning

hududiy boshqarmalari tomonidan berilgan haftalik ma'lumotlarni ushbu buyruqning 1, 2, 3, 4-ilovalariga asosan o'z vaqtida jamlash va tahlil qilishni;

barcha o'tkir hamda og'ir o'tkir respirator infeksiyalaridan kuzatilgan o'lim holatlarida epidemiologik surishtiruv ishlari o'tkazishni;

Qo'mitaning hududiy boshqarmalari tomonidan gripp va o'tkir respirator infeksiyalarga qarshi amalga oshiriladigan profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar hamda epidemik tadbirlarni nazoratga olib, joylarda mutaxassislariga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatishini ta'minlasin.

4. Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti (E. Musabaev):

davolash-profilaktika muassasalariga gripp va o'tkir hamda og'ir o'tkir respirator infeksiyalar klinikasi, diagnostikasi, davolash masalalari bo'yicha konsultativ yordam ko'rsatilishini tizimli ravishda tashkil etilishini;

ilmiy izlanishlar jarayonida gripp va o'tkir hamda og'ir o'tkir respirator infeksiyalarni o'tgan yillarga nisbatan mavsumiy ko'tarilishini prognoz qilib borishni ta'minlasin.

5. Vazir o'rinbosari (F. Tashpulatov) vaksinalar, virusga qarshi dori-darmonlar, shaxsiy himoya vositalari, gripp va boshqa o'tkir respirator infeksiyalarning og'ir turlarini erta aniqlashda kerakli bo'ladigan laboratoriya vositalari va tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan mablag'larni har yili smeta xarajatlarida nazarda tutilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 8-sentabrdagi 224-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruq bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari v.b. D. Sultanov zimmasiga yuklansin.

Buyruq ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul barcha muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi raisi B. Yusupaliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir v.b.



A. Xudayarov

Sog'liqni saqlash vazirining
2024-yil 10-sentabrdagi
192-son buyrug'iga
1-ilova

0-14 yoshgacha bo'lgan bolalar, kattalar, o'quvchilar, tarbiyalanuvchilarda, homiladorlar orasida o'tkir respirator infeksiyalar, o'tkir zotiljam, grippga o'xshash kasalliklar, og'ir o'tkir respirator infeksiyalar to'grisida

MA'LUMOTLAR

[illegible][illegible]

Sog'liqni saqlash vazirining
2024-yil 10-sentabrdagi
222-son buyrug'iga
2-ilova

Grippga o'xshash kasalliklari, o'tkir respirator infeksiyalar, o'tkir zotiljam bo'yicha haftalik
TEZKOR MA'LUMOTLAR

T/r	Ma'muriy hududlar	GO'K	O'RI	O'Z
1				
2				
Jami				

Sog'liqni saqlash vazirining
2024-yil 10-sentabrdagi
292-son buyrug'iga
3-ilova

**Epidemiyaga qarshi tadbirlar bo'yicha
TEZKOR MA'LUMOTLAR**

[illegible]

Sog'liqni saqlash vazirining
2024-yil 10-sentabrdagi
292-son buyrug'iga
4-ilova

Klinik shifoxonalar bo'yicha haftalik
MA'LUMOTLAR

T/r	Ma'muriy hududlar	O'rin soni	<u> </u> 202_yildan qolgan bemorlar soni	Shifoxonadan chiqarilgan bemorlar soni	<u> </u> 202_yildan qolgan bemorlar soni	Foizi (%)
1						
2						
3						
4						
Jami						